



**DAVLAT BOSHQARUVI VA JINOIY ISHLARNI YURITISHDA HUQUQIY
PSIXOLOGIYA O'RNI- O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TARAQQIYOTINING
YUQORI RIVOJLANISH GAROVI.**

Mamatmurodova Zilola Alisherovna.

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida qonunchilikni mustahkamlash va uning jahon arenasidagi raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lgan huquqiy ong va madaniyatni oshirish targ'iboti siyosati, shuningdek, sud va sudgacha tergov bosqichi ishtirokchilarining xulq-atvori hamda jinoyat ishi ochilishida huquqiy psixologiyaning o'rni, shu bilan birga uning oqibatida vujudga keladigan o'zgarishlar va hozirgi holat o'rtasida taqqoslash masalasiga bag'ishlangan. So'nggi yillarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qolaversa, sud faoliyatiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tahlil qilish jarayonida huquqiy psixologiya nuqtayi nazaridan yondashuv asosida nazariy va amaliy masalalar xususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Korupsiya, Huquqiy ong va huquqiy madaniyat, Ichki ovoz, yon daftar, huquqiy psixologiya, davlat boshqaruvi, huquqiy targ'ibot.*

KIRISH

Raqamli XXI asr zamonaviy dunyo davlatlari yangi texnologiyalar bilan kirib kelayotgan bir davrda, davlat boshqaruvida korrupsiya illati jahon miqiyosi bo'yicha muayyan yechimi topilmagan global muammo darajasida shu kunga qadar ko'tarib kelinayotgan masalardan biri bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvida bu masalga qarshi kurashish yo'li deb huquqiy ong va huquqiy madaniyatni jamiyatning har bir qatlamida yuksaltirishni va jinoyatchilikni kamaytirish borasidagi ishlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, odil sulovni amalga oshiruvchi sud hokimiyati ta'sirchan foaliyatini amalga oshirish asosiy diqqat qaratiladigan jarayonlar sifatida belgilandi. E'tiborli jihati shundaki, qabul qilinayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunlari, Prezident farmon, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan bu xususidagi qarorlar natijasida Umumiy o'rta ta'lim maktabi va Maktabgacha davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari shunidek Oliy o'quv yurtlarida huquqiy bilim va ko'nikmalarni yoshlar ongiga singdirish maqsadida bir qancha ko'rik tanlovlar, ko'krak nishon, qo'llanmalar ishlab chiqildi va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib aynan qonun ustuvoligi, adolat me'zonlariga qat'iy amal qilinishini anglatish uchun uzbek kinofilmlar ham suratga olindi. Ammo shunga qaramasdan jinoyatchilikni nafaqat oddiy fuqarolar balki mansabdor shaxslar orasida kamayishi kuztilmadi. Shuning uchun turli xil soha vakillari, olimlar va mutaxassislar jalb qilinib avvaldan qo'llanib kelingan tajribalar bilan birgalikda xorijiy amalyotlarni o'rganish-islohotlarni mazmuni va mohiyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.





ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Muhokama qilinayotgan mavzuga doir normativ-huquqiy hujjatlar, yuridik adabiyotlar va internet jahon axborot tizimidagi ma'lumotlarga tayanildi. Maqolani yozish davomida nazariy deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, matiqiylik tamoyillari qo'llaniladi.

ASOSIY QISM

Mazkur muhokamada O'zbekiston Respublikasida jamiyatimiz rivoji uchun amalga oshirilayotgan bir qator islohotlar va chora-tadbirlar yoritilibgina qolmay, tizimdagi ayrim bo'shliqlar va kamchiliklar ham ta'kidlanadi. Tan olish kerakki, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati o'z faoliyatini inson qadrini yuksak e'tirof etgan holda amalga oshirmoqda. Jumladan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2022-yilni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilganligi munosabati bilan amaldagi qonunlar va davlat organlarining sa'y-harakatlari har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini bevosita amalga oshirish borasida yanada jadallik bilan davom ettirilishiga asos bo'ldi. Shu munosabat bilan, inson huquqlarini to'laqonli amalga oshirishi uchun eng avvalo huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lishi zarurligi inobatga olinib, 2019-yil 9-yanvarda qabul qilingan PF-5618-sonli Farmon asosida "Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oyaga asoslangan Konsepsiya ishlab chiqildi. "Shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat" tamoyiliga asoslangan holda tizimli va uzviy harakatlar yo'lga qo'yildi. Yaqqol misol tariqasida, 2019-yilning o'zida Konsepsiyani samarali amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va Adliya vazirligi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi organ etib belgilandi. Qolaversa, Konsepsiyani samarali ijrosini ta'minlash maqsadida malakali yuridik yordam tizimi elektronlashtirildi, ya'ni Advice.uz huquqiy internet portali ishga tushirildi. Bu portal ko'plab fuqarolarga yuridik yordam olishda vaqt va moliyaviy resurslarni tejash imkonini yaratdi. Konsepsiya asosida ta'lim muassasalarida turli ko'rik-tanlovlar tashkil etildi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinflar uchun "Huquq bu – to'g'rilik" mavzusidagi rasmlar tanlovi, kasb-hunar maktablari va oliy ta'lim muassasalarida esa "Mening huquq va majburiyatlarim", "Siz qonunni bilasizmi?", "Huquq bilimdonlari" kabi tanlovlar tashkil etilib, huquqqa bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirishda muhim rol o'ynadi. Ta'kidlash joizki, amalga oshirilgan ishlarning asl mohiyati "Yangi O'zbekiston"ni barpo etishda eng katta tayanchimiz bu yoshlarimizdir, degan yondashuvga asoslanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan siyosat markazida aynan yoshlar turibdi. Bu — ularning ongi va madaniyati kelajagimiz poydevori ekanligini anglatadi. BMT sobiq Bosh kotibi Kofi Annan tomonidan aytilgan "To build a better future, we must start with children" (Yaxshi kelajak qurmoqchi bo'lsak, avvalo bolalardan boshlashimiz kerak) degan so'zlar bu fikrga ishonch bag'ishlaydi. Ammo islohotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, tizim ayrim kamchiliklardan xoli emas. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yilga oid huquqiy ong va huquqiy madaniyatni baholovchi rasmiy statistik ma'lumotlar hali e'lon qilinmagan. Biroq, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



2024-yilda o'tkazilgan Huquqiy ehtiyojlar so'rovi natijalariga ko'ra: Respondentlarning 71% o'z huquqiy bilim darajasini "o'rtacha" deb baholagan. Test savollariga to'g'ri javob berish ko'rsatkichi 64%ni tashkil qilgan. Respondentlarning 33% qonunlarni yetarlicha tushunmaslikni muammo sababi sifatida ko'rsatgan. Ammo atigi 8.6% respondentlar advokat xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega ekanligini bildirgan. Bu raqamlar aholi orasida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish yo'lida hali ko'p ishlar qilish lozimligini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlardan kelib chiqadigan xulosa shunday bo'ladiki, nafaqat O'zbekiston balki butun bir dunyo mamlakatlar bu muammoga hali-hanuz to'laligicha yechim topmagan. Haqiqatdan ham huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasidagi kamchiliklar borligi sirigicha qolmayapti xususan Konsepsiya qabul qilinishiga ehtiyoj inson huquq va erkinlariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda deb topilganidan so'ng qonun qabul qilingan edi, lekin koruppsiya holati kamaymadi xususan 2024-yil 6 898 nafar shaxs tomonidan 5 716 korupsiyaga oid jinoyat sodir etildi. Bu aholining yuqori miqdoridagi qatlami huquqiy madaniyatga ega emas yoki huquqiy ongi shakllanmagan deb topishga asos bo'la oladi va aynan shu davlat boshqaruvini zaiflashtiruvchi koruppsiya holatini keskin oshirishga sabab bo'ladi. Shuningdek, 2003-yil Nyu-yorkda qabul qilingan BMT ning korupsiyaga qarshi Konvensiya muqaddimasida Koruppsiya jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illat ekanligi hamda u demokiratiya va huquq ustuvorlik asoslariga putur yetkazishi, inson huquqlari buzilishiga olib kelishi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qilishi, hayot sifatini yomonlashtirishi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib berishi ta'kidlandi. Shu sababli insonning tabiatiga xos bo'lgan yomon illatlar avj olishiga sharoit yaratib ularni mehnat qilishi, ilm o'rganish zaruratini tushirishga olib keladigan holatlarga sharoit yaratib kelmoqda xususan achinarli jihati shundaki, bu holatga ta'lim va tibbiyot sohasida ko'p marotaba duch kelishimiz mumkin, vaholanki aynan bu sohalar jamiyatimiz qiyofasini, shaxsiyatini shakllantiradigan sohalar hisoblanadi. Mazkur holatda O'zbekistonda sodir etilayotgan jinoyatchilik holatiga aniqlik kiritilsa, umumiy jinoyatlar soni 2024-yilda O'zbekistonda jami 132 298 ta jinoyat ro'yxatga olingan bo'lib, bu 2023 -yilga nisbatan 27,1%ga ko'pdir, jinoyatlar toifasiga nazar tashlanilsa jinoyatlarning 59.4% i yoshlar tomonidan sodir etilgan, jinoyatlarning 36,1% ilgari sudlanganlar tomonidan sodir etilgan, 7 mingdan ortiq jinoyat ishsizlar tomonidan sodir etilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, jamiyatimiz barcha qatlamini qamrab oluvchi, to'g'ri yo'ldan yurishga ko'maklashuvchi qonunlarimiz va ta'sirchan boshqaruv usullar tizimimiz yaxshi tashkillashtirilmayotganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquq va erkinliklarini amalga oshiradigan fuqaro ham, bu huquq va erkinliklarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi davlat organlari ham, avvalo insondir. Inson fikrlab yashaydi va uning kuchi hissiyotlarini qo'zg'atadi. Natijada,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



hissiyotlar to'liqini harakatga undaydi. Bu esa butun tizim ishlashi uchun eng muhim jarayondir. E'tiborli jihati shundaki, qonunlar tabiiy ehtiyojni hisobga olib qabul qilinsa va joriy etilsa, hokimiyat tomonidan yuritilayotgan siyosat xalq tomonidan to'g'ri qabul qilinib, amalda tatbiq etilishi yuqoriroq bo'lishi kutiladi. Masalan, nemis shoiri, yozuvchisi, faylasufi va tabiatshunosi Gyote (Johann Wolfgang von Goethe) aytganidek: "Qonunlar kuchli, ammo ehtiyoj kuchliroq." Ushbu g'oyaga asoslanib bir misolni ko'rib chiqamiz: ko'p sonli aholi yashaydigan shahar yaqinida shifoxona joylashgan. Odatdagidek, ko'chalar odamlar bilan gavjum, shovqin esa yuqori bo'lishi tabiiy. Ammo bu holat shifoxonadagi bemorlar uyqusini buzayotganligi va bezovta qilayotganligi sababli, shifoxona xodimlari davlat organlariga aynan shu ko'chada "fuqarolarning shovqin qilishini man etish" to'g'risida qoida belgilashni taklif etishadi. Vaholanki, kasalxonadagi ko'p bemorlar shu atrofda istiqomat qilganligi bois, ularning yaqin qarindoshlari bu qoidadan bexabar bo'lishiga qaramay, unga so'zsiz amal qila boshlashadi. Chunki ular yaqin insonlarining tezroq sog'ayib ketishidan manfaatdor. Natijada, ko'chada ushbu qoida o'rnatilishi bilanoq yaxshi ishlay boshlaydi. Sababi inson ongi shundayki — u harakatni ko'chirishga moyil. Bu qoida bemorlarning yaqinlari tomonidan amalga oshirilayotganini ko'rib, boshqalar ham bu xulq-atvorni takrorlashi osonlashadi. Bundan ko'rinib turibdiki, yuqoridagi muvaffaqiyatli tartib o'rnatilishida ko'p hollarda sezilmaydigan ikki qonun ishlamoqda: birinchisi, insonda ehtiyoj – bajarish kafolati bo'lib xizmat qiladi; ikkinchisi esa inson ko'zi ko'rgan narsani ko'chirishga moyilligi – xarakteri, bajarish kafolatidir. Demak, siyosat yuritilishi uchun qonun kerak, qonun ishlashi uchun esa muhit kerak. Aynan yuqoridagi ilg'anilmaydigan qonunlar tabiiy ravishda tug'iladi — qachonki muammoni ongli kuzatgan insonlar taklif va shikoyati asosida ehtiyojli qonun amaliyoti yaratilganida. Ammo eng achinarlisi shuki, o'z muhitini o'zgartirishga ehtiyoji bor bo'la turib, unga ko'nikib yashayotganlarni ham davlat organlari qonunlarga taklif berishi, uning ijrosida faol bo'lishi haqida ogohlantirishi — aynan shu insonlarning foydasi uchun ishlashini anglatish zaruratidan kelib chiqadi. Bu tushunchani yana bir misol orqali ko'rib chiqamiz. Bilamizki, xotin-qizlar ko'pincha oila a'zolari tomonidan cheklov va zo'ravonlikka uchraydi. Bu esa ular uchun tabiiy hayot tarziga aylanib ulgurgan va bu haqida hech bir davlat organiga murojaat etmayotganlarini ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekistonda 2023-yilning dastlabki 8 oyida zo'ravonlikka uchragan shaxslar soni 747 nafarga yetgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 140% oshgan. Zo'ravonlikka uchraganlarning 88% ayollar, 12% erkaklardir. Ammo 2024-yilga kelib, aynan shu toifadagi insonlar murojaat etishi uchun ishonch telefonlari va himoya orderlari faol ishlay boshladi. Shu yilning 9 oyi davomida "1146" ishonch telefoniga zo'ravonlikdan jabrlangan 1832 nafar fuqaro murojaat qilgan. Bu ko'rsatkich oshishining asosiy sababi — xotin-qizlar ongiga ularning yolg'iz emasligi va bunday zo'ravonlikka loyiq emasliklari haqidagi tushunchaning singdirilishi bo'ldi. Bu esa ko'p marotaba ko'rilgan o'zbek xonandalarining musiqiy videolari va davlat ayol rahbarlarining ta'sirli nutqlari orqali amalga oshdi. Ayollarimiz o'z kelajagiga va o'ziga bo'lgan ishonchni shu ruhda hosil qildilar. Jumladan, targ'ibot yo'lida faol harakat qilgan Saida Mirziyoyeva



“Zakovat” arenasi sahnasida so‘zlagan nutqi e’tirofqa loyiq bo‘ldi. Ayniqsa, uning “O‘qimishli bir o‘g‘il – oila tayanchi bo‘lsa, o‘qimishli bir qiz – butun millat tayanchidir” degan so‘zlari xalqimiz ongida o‘ziga xos yangi yo‘l ochdi yoki bor bo‘lgan yo‘lga ruxsat ochdi. Munisa Rizayevaning “Zolim” deb nomlangan video klipi ham aynan shu chaqiriq asosida ishlangan.

Xulosa shundan iboratki, siyosat yuritiladi, qonun amalda bo‘ladi — qachonki xalqimiz ehtiyoji va ishonchi tufayli chora-tadbirlar amalga oshirilsa. Bu ham ko‘rinmas, ammo doim ishlaydigan ilohiy qonundir. Demak, qonunlar qanday ishlashi haqida psixologik, inson tabiatidan kelib chiqib ishlansa, ancha kuchliroq amalda bo‘lishi kerakligini ta’kidladik. Ammo davlat organlari o‘zi shu qonunlarni buzsa, ya’ni korrupsiyaga yo‘l qo‘ysa nima bo‘ladi? — deyilgan savolga endi inson shaxsiyatini rivojlantirish qanchalik jinoyatlar kamayishiga, nega kamayishiga va qanday chora qo‘llansa psixologik nuqtai nazardan kamayishiga oid tushunchalar haqida muhokama qilinadi. Satr boshida aytilganidek, insonni fikr boshqaradi. Ammo ko‘pchilik qanday to‘g‘ri boshqarishni bilmaydi. Agar to‘g‘ri boshqarilsa, ulkan yutuqlarni zabt etishi mumkin. Fikr boshqarilmasa esa diqqat qayerda bo‘lsa, o‘sha tomonga yuritiladi va harakatlanadi. Lekin kerakli ishga ko‘zi yoki diqqatini qaratmasa, bu ish unutiladi, ya’ni qilinmasligi katta ehtimol. Bu nafaqat mas’uliyat bilan qilinmagan ishlar, balki o‘z maqsadi sari to‘g‘ri harakatlana olmagan, jinoyat yo‘liga kirgan yoki oylik maoshi yetmay pora olgan har bir shaxs — fuqaroning zaif nuqtasidir. Shuning uchun bu nuqtaga yechim qilib ichki ovozni rivojlantirishni ko‘rsataman. Sababi: fikrlarimiz tashqi muhit hosilalaridan bo‘lishi yoki keyingi ko‘rinmas qadamimiz uchun bo‘lishini ta’minlaydi. Ichki muhokamada bu to‘g‘ri aniqlanadi. Aslida butun bizning boshqaruv tizimimiz — Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Sud — ichimizda ishlaydigan tizim, faqat uni muvofiqlashtirilgan, hisobot talab qilinmaydigan ko‘rinishida insonlarda ko‘pdir. Bu fikrlarni yana ishonchli qilish uchun Alain Morin 2005-yilda chop etilgan Possible Links Between Self-Awareness and Inner Speech asarida: “Ichki nutq — bu o‘zimizni anglash, o‘zimizni kuzatish va o‘zimizni boshqarish vositasidir”, — deb ta’kidlaydi. Yoki Ethan Kross o‘zining Chatter: The Voice in Our Head, Why It Matters, and How to Harness It (2021) kitobida: “Ichki ovozimiz har doim nimadir demoqda, bu bizning tajribalarimizni anglash va tushunishda tilning rolini eslatadi”, — deb aytganlari bejiz emas. Tushunarli bo‘ldiki, tashqi muhitdagi davlat hokimiyatini boshqarish uchun ularning ichki hokimiyatini to‘g‘ri boshqarishni o‘rgatish lozim. Shuning uchun bir loyiha taklif etaman: bu nazariyalar faqat qog‘ozda qolmasligi, balki hayotga talqin etilib jamiyatimizdagi yuqorida sanab o‘tilgan muammolarga to‘g‘ri amaliy yechim sifatida “Yon Daftar Nazorati” tizimi yo‘lga qo‘yilishi, ma’lum mezonlar asosida to‘ldirilishi hamda uni maxsus yuqori organlar tekshirib borishi zarur. Chunki aynan inson ichki boshqaruv markazi fikrlar tartiblanganda va to‘g‘ri ma’lumotlar mavjud bo‘lsagina kuchayadi. Daftarga fikrlarni yozish esa insonni ongli hayot sari yetaklaydi. Bunga misol: Vashington Universiteti professori Virginia Berninger tomonidan 2006–2012 yillarda o‘tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, qo‘l bilan yozish bir vaqtning o‘zida 3 ta asosiy hududni faollashtiradi: motorika, til, va idrok. Bu esa



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



fikrlash tezligi va mantiqiy mulohaza qilishni oshiradi degan natija bergan. Davlat boshqaruviga psixologik yondashuvning amalda qo'llangan isboti sifatida Singapur misolini ko'rib chiqamiz. Bu yerda "Reflective Practice", "Leadership Journaling" yoki "Decision-Making Logs" deb nomlanadigan tizim ayniqsa yuqori lavozimli rahbarlar va davlat xizmatchilari uchun joriy qilingan. Ular bu orqali:

- Qarorlar qabul qilish jarayonini yozib boradi,
- Harakatlarining sabab va oqibatlarini tahlil qiladi,
- Shaxsiy mas'uliyat va o'zgarishga ochiqlikni rivojlantiradi
- .-Korrupsiyadan holi va ochiq boshqaruv tamoyilini mustahkamlaydi.

Bu harakatlarni amalga oshirishda Singapur Davlat Xizmati Kolleji bu bo'yicha maxsus daftar yuritish tartibini ishlab chiqqan. U quyidagicha bo'lgan: Har kuni yoki haftada rahbar o'z faoliyati, qarorlari, duch kelgan muammolari haqida yozadi. Ushbu yozuvlar ichki audit va mentorlikda ishlatiladi (lekin bu maxfiylikni buzmaydi). Bu yozuvlar rahbarning shaxsiy intizomi va o'zini baholash vositasi sifatida ishlaydi. Xulosa shundan ko'rinadiki, boshqaruv siyosatini takomillashtirish faravon hayot sari yetaklasa, bu tizimni yanada samarali yo'lga qo'yishda huquqiy psixologiyani o'rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) **Lex.uz**
- 2) <https://anticorruption.uz/uz/item/2024/01/24/6-898-nafar-shaxs-tomonidan-5-716-ta-korrupsiyaga-oid-jinoyat-sodir-etilgan>
- 3) https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/tools_and_publications/UN-convention-against-corruption.htmlhttps://stat.uz
- 4) Anticorruption.uz
- 5) BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (2003)
- 6) MT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), O'zbekiston bo'yicha Huquqiy ehtiyojlar tahlili 2024:
- 7) <https://qomita.uz>
- 8) <https://stat.uz>
- 9) https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/en/home/library/access_to_justice/legal-needs-survey-2024.html
- 10) https://anticorruption.uz/uz/item/2024/01/24/6-898-nafar-shaxs-tomonidan-5-716-ta-korrupsiyaga-oid-jinoyat-sodir-etilganhttps://www.unodc.org/unodc/en/corruption/tools_and_publications/UN-convention-against-corruption.htmlhttps://stat.uz
- 11) https://www.researchgate.net/profile/Alain-Morin-2?utm_source
- 12) https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16390289/?utm_source=lifescied.org/doi/10.1187/cbe.22-07-0148?utm_source



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



13)comhttps://www.columbiaacademy.com/handwriting-still-matters/?utm_source.comhttps://achology.com/books/chatter-the-voice-in-our-head/?srsltid=AfmBOopGGpgta5Hf36FN43TVJc9U3a2yUH78rh4awnfMY9GUHoWOkKzn&utm_source

14)comhttps://youtu.be/YJtW9helO8Y?si=k5x0yjlmdMsMqBPVhttps://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1747938X20308368?utm_source.

15)comhttps://www.washington.edu/news/blog/uw-prof-handwriting-engages-the-mind/?utm_source.

16)com1. Morin, A. (2005). Possible Links Between Self-Aw